

## Olov hikoyasi



16:30 / 21.01.2023 3953

Assalomu alaykum, azizlar! Men odamzotning ajralmas do'sti - Olov bo'laman. Ha, qiyomatgacha inson bilan birga-birga yashash mening taqdirimga yozilgan. Odamzot ovqat pishirmoqchi bo'lsa o'tga aylanaman. Tunlarni yoritmoqchi bo'lsa, chiroqqa aylanaman. Sovqotib qolsa, isitib qo'yaman. Bu do'stlik qachondan boshlanganini bilmayman. Lekin taxmin qilsa bo'ladi. U paytlarda jami odamu, jonivorlar issiq o'lkalardagina do'st, inoq yashashardi. Ular uchun yeguliklarni quyosh, yer va suv pishirib berardi. Odamlar shirin-sharbat mevalar, lazzatli ildizlar bilan kun kechirishardi. Biror nimani olovda pishirib yeyishga, ya'ni menga hojatlari yo'q edi.

Keyinchalik odamlar ko'payib, yo'ldan oza boshlashdi. Nafslarini tiya olmay, shaytonning yo'lga yurishdi. Alloh berayotgan ne'matlarni qushu-qurtlardan, jonivordan qizg'ana boshlashdi. Qizg'anchilik odamlar qalbidan mehrni ko'tardi. Mehirsizlik iymonni ko'tardi. Iymon ko'tarilgach, Allohni unuta boshlashdi. Qurt-qumursqa-yu, parranda, darrandalarga qarshi urush ochishdi. Qushlar qayerga qo'nishini, jonivorlar qayerga qochishini bilmay qoldi.

- Ey bor Xudoyo, bizlarni bu azoblardan qutqar, - deb yolvorishdi jonivorlar.

Alloh taolo odamlarni yerga xalifa qilib yaratgan, ularga aql va idrok ato etgan edi. Shu bilan birga yer yuzidagi jami jonli va jonsiz narsalarni ularning xizmatiga bo'ysuntirib qo'ygan edi. Ammo odamlar Alloh qo'ygan chegaradan chiqishdi. Allohning amri bilan yer soviy boshladi. Issiq o'lkalardagi jami narsalar qirilishga yuz tutdi. Odamlar nima qilishni bilmay o'zlarini g'orlarga urishdi. Shunday qilib jon saqlamoqchi bo'lishdi. Baribir ahvollari yaxshilanmadi. Qilgan gunohlari

uchun astoydil tavba qila boshlashdi. Shunda Alloh taolo meni ulkan bir daraxt ustiga yashin qilib tushirdi. Daraxt alanga olib, yona boshladi. Buni ko'rgan odamlar bekingan joylaridan chiqib, isina boshlashdi.

Odamlar bundoq qarasalarki, men yonib-yonib o'chib qolishim ham mumkin ekan. Ular meni o'chirmaslik uchun o'zlari yashayotgan g'orlarga, kulbalarga tashib keta boshlashdi. O'chirmaslik yo'llarini o'ylab topishdi.

Biroq ular yana yanglishishdi. Alloh qolib, endi menga sig'ina boshlashdi. Xuddi men ularni halokatdan qutqarib qolgandek. Ular «Otashparast» deb nom oldilar. Menga sig'inib, yana gunohga botishdi. Men esa Allohdan:

- Ey bor Xudoyo, bu o'tparast bandalaringga bir payg'ambar yuborin, u muborak zot seni ularga tanitsin, meni ham Alloh yaratganini bildirsin, - deb so'rar edim.

Allohgga shukurlar bo'lsinki, shunday bo'ldi. Arablarning Quraysh qabilasidan Abdulloh xonadonida Omina onamiz yangi mehmonga yukli bo'ldilar. Shunda Omina onamizda bir muborak nur paydo bo'ldi. Bu nurni qaynotalari, Abu Tolib sezidilar. Ana shu nur paydo bo'lish barobarida Omina onamiz tush ko'rdilar, tushlarida farishtalar u kishiga oxir zamon payg'ambari - tug'ilajak yangi mehmon haqida xabar berishdi. Mehmonning ismi - Muhammad bo'lishini ham aytishdi.

Farzand dunyoga keldiki, Omina onamizdagi nur bolaga ko'chdi. Va bu muborak nurdan butun Makka shahri yorishib ketdi. Shuning barobarida nur shu'lasida Makkadan 50 kunlik olisda bo'lgan Shom viloyatidagi Busro shahri saroylari ko'rindi. Bu mo'jizadan men ham behad suyundim.

Yosh Muhammad tug'ilganida ko'p g'aroyib ishlar bo'ldi. Makkadagi Baytullohning ichiga o'rnatib qo'yilgan butlar o'z-o'zidan yuzlari bilan yerga quladi. Shu kuni necha ming yillardan beri otashparastlarning masjidida yonib turgan olov ham Allohning amri bilan o'chib qoldi. Chunki dunyoga Allohning suyukli payg'ambari, insonlarga Allohni tanituvchi Muhammad sollalohu alayhissalom kelgan edilar-da... Bu kun dushanba kuni edi.

Ana shunaqa gaplar. Mana azizlar, mening hikoyam ham tugadi. O'ylaymanki, har kuni, uyingizdagi olovga ko'zingiz tushganida meni ham eslab qo'yasiz.

***Erkin bobo***

**«Хилол» журналининг 9(42) сонидан**